



Received: August 20, 2025  
Accepted: September 23, 2025  
Available online: September 25, 2025

## **Ra‘no Mullaxo‘jayeva**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent  
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston  
Milliy universiteti  
Toshkent, O‘zbekiston

## **Rano Mullakhoyayeva**

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD),  
Associate Professor  
National University of Uzbekistan named after  
Mirzo Ulugbek  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: rano-05@list.ru  
ORCID iD: 0009-0006-5812-2803

### **NAIM KARIMOV TADQIQOTLARIDA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY SHAXSIYATI VA IJODIY MEROSI**

#### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada akademik Naim Karimovning Behbudiy hayot yo‘li va ijodiy faoliyati tadqiq etilgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” risolasi o‘rganilgan.

Behbudiy va uning faoliyatini keng qamrovda o‘rganish boshlangan davrda yozilgan ushbu ilmiy risolada uning tug‘ilgan joyi, ota-onasi, yoshlik yillari, muftiylik faoliyati, ma‘rifatparvarlik yo‘lidagi sa‘y-harakatlari, “Behbudiya” kutubxonasining tashkil etilishi, birinchi o‘zbek dramasi – “Padarkush”ning yaratilishi va milliy o‘zbek teatr san‘atining maydonga kelishidagi xizmatlari, shuningdek, fojiali o‘limi bilan bog‘liq masala-muammolar tarixiy dalillar asosida keng yoritib berilgan edi.

Maqola muallifi Behbudiy faoliyatini o‘rganish tajribalariga e‘tibor qaratgan holda Naim Karimovning bu sohadagi xizmatlarini baholashga harakat qiladi. Behbudiyning milliy uyg‘onish, jadidchilik, ma‘rifat va siyosiy islohotlar yo‘lidagi xizmatlari chuqur tahlil qilingan risolaning ziyolilar va, albatta, xalqimiz ongidagi yangilanishlardagi o‘rni xususida fikr-mulohazalarini taqdim etadi.

Maqolada olimning tadqiqot uslubi, tarixiy manbalarga tayanib ilgari surgan nazariy xulosalari tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, g‘oya, islohot, matbuot, publitsistika, talqin, tarixiy haqiqat.

#### **KIRISH**

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda o‘zbek xalqi tafakkurida

### **PERSONALITY AND CREATIVE LEGACY OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI IN NAIM KARIMOV’S RESEARCH**

#### **ABSTRACT**

This article examines academician Naim Karimov’s study of Mahmudkhoja Behbudi’s life and creative activity, focusing on his monograph Mahmudkhoja Behbudi.

Written during the early period of comprehensive research on Behbudi and his work, this scholarly monograph details his birthplace, parents, youth, tenure as a mufti, efforts in enlightenment, the establishment of the Behbudiya Library, the creation of the first Uzbek drama Patricide, and his contributions to the emergence of national Uzbek theatre, as well as the circumstances surrounding his tragic death, all supported by historical evidence.

The article’s author evaluates Karimov’s contributions to the study of Behbudi by considering prior research experiences, highlighting his analytical approach. It reflects on Behbudi’s role in national awakening, Jadidism, enlightenment, and political reforms, providing insights into his influence on the intellectual and cultural renewal of Uzbek society.

Furthermore, the article explores the scholar’s research methodology, his use of historical sources, and the theoretical conclusions he advanced.

**Key words:** jadidism, enlightenment, national awakening, idea, reform, press, publicistic writing, interpretation, historical truth.

yangi sahifa ochgan, yangi yo'nalishlarni boshlab bergan namoyandalardandir. O'z davrida ham, bugun ham u "Turkiston jadidlarining otasi", o'zbek adabiyoti tarixida zamonaviy dramaturgiyani boshlab bergan dramaturg, yozuvchi, noshir, jurnalist, yirik davlat arbobi, jadidchilik harakatining namoyandasi sifatida tan olingan. Behbudiyning faoliyati o'tgan asrning 20-yillarida mahalliy matbuotda Sadridin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda, Abdurahmon Sa'diy, Fayzulla Xo'jayev kabi zamondoshlari tomonidan e'tirof etilgan. XX asrning 70-yillaridan bugunga qadar Solih Qosimov, Ahmad Aliyev, Begali Qosimov, Naim Karimov, Ibrohim G'ofurov, Baxtiyor Nazarov, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmad, Hamidulla Boltaboyev, Shuhrat Rizayev, Zaynobiddin Abdirashidov va Halim Saidovning maqola va monografiyalarida Behbudiy hayoti va ijodiy merosi haqidagi ma'lumotlar berilgan. 2018- hamda 2021-yillari adibning ikki jildlik "Tanlangan asarlar"i [Behbudiy, 2018, 2021] chop etildi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning nomi, g'oyalari va faoliyati uzoq yillar davomida mafkura ta'sirida o'zining haqiqiy bahosini ololmadi. Faqatgina mustaqillikka erishgandan keyingina buyuk ma'rifatparvar shaxs haqidagi haqiqatlar tiklandi. Bu jarayonda behbudiyshunos olimlar qatorida turgan akademik Naim Karimovning o'rni beqiyos. Olim ilmiy faoliyatining katta qismi jadid adabiyotini o'rganishga bag'ishlagan. Uning XX asr birinchi yarmida yashagan yozuvchilar hayoti va ijodining kitobxonlarga va hatto mutaxassislarga noma'lum bo'lgan sahifalari yoritilgan, ularning mustabid tuzum davridagi erk va istiqloq uchun kurashi hamda fojiali taqdiri o'z aksini topgan "XX asr adabiyoti manzaralari", "Jadid teatri" va "Adabiyot va tarixiy jarayon" kitoblarida ham Behbudiy haqida ma'lumotlar keltirilgan. Biroq olimning 2011-yili chop etilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" risolasi Behbudiy hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muhim manba hisoblanadi.

N.Karimov tadqiqotlarida Behbudiyning ijodiy merosi Behbudiy publitsistikasi, adabiy-siyosiy faoliyati, maorif va noshirlik kabi yo'nalishlarda tadqiq etilgan.

## ASOSIY QISM

N.Karimov "Mahmudxo'ja Behbudiy" risolasida muammo-masalalarni – "Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyatini o'rganish tarixiga nazar", "Behbudiy qachon tug'ilgan?", "Ota-bobosi va yoshlik yillari", "Muftilik faoliyati", "Haj safari", "Ma'rifatparvarlik faoliyati", "Behbudiya kutubxonasi", "Ismoil Gasprinskiy va Behbudiy", "Istanbul shahridagi uchrashuv", "Birinchi o'zbek dramasi yaratilishi", "Jadid adabiyotining muhim sohasi", "Ijtimoiy silsilalar girdobida", "Sirli o'lim", "Behbudiy qayerga bormoqchi bo'lgan?", "Behbudiy kim o'ldirgan?", "Behbudiy abadiyati" tartibida qo'yib o'rgangan.

N.Karimov ham boshqa behbudiyshunoslar qatori Behbudiyning tug'ilgan sanasidagi noaniqlikka oydinlik kiritish uchun izlanadi [Karimov, 2010]. Uning hayoti va ijodi bilan shug'ullangan Hoji Muin "1868-yilda ruslar Samarqandni zabt etgach, Mahmudxo'janing otasi Behbudxo'ja o'zining oilasini olib, Samarqand uyazining Siyob bo'lusidagi Baxshitepa qishlog'iga ko'chib chiqqan va shunda yetti yil chamasi imom va xatib bo'lg'on. Behbudiy afandi shul qishloqda 1291-hijriy

yilda 10-zulhijja oyida (1874, mart) oqshom dunyog'a kelgan" [Muin, 1923]. Agar adabiyotshunoslarning bir guruhi uchun Hoji Muinning "1874, mart" degan fikrlari muhim ko'ringan bo'lsa, ikkinchi guruhi "1291-hijriy yil 10-zulhijja oyi"ni milodiy yilga ko'chirish yo'li bilan Behbudiyning 1875-yil 19-yanvarda tug'ilganini, Hoji Muin esa hijriy yil hisobini milodiy yil hisobiga ko'chirishda adashganini aniqlagan" [Karimov, 2011; 8].

Olim Behbudiyning ota-bobosi va yoshlik yillari haqida ham Hoji Muin bergan ma'lumotlarga suyanadi: "Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja bin Solihxo'ja bin Niyozxo'ja, – deb yozadi Hoji Muin, – Behbudiyning yuqori bobolari nasab jihatidan Xo'ja Ahmad Yassaviyga borib yetadi" [Muin, 2005; 19].

"Bu so'zlarda tilga olingan Solihxo'ja bilan Niyozxo'ja Behbudiyning bobolari bo'lib, Hoji Muin ularning Ahmad Yassaviyga qarindoshlik rishtalari bilan bog'langanini alohida ta'kidlaydiki, uning bu ma'lumotni Behbudiyning o'zidan eshitganligi shubha uyg'otmaydi" [Karimov, 2011; 19].

Behbudiyning faoliyatida muftiylik ham muhim o'rin tutadi. Buni ilk marta adabiyotshunos Solih Qosimov yoritgan. Naim Karimov bu mavzuni yoritishda Solih Qosimov maqolasi va Behbudiyning qizi Parvin Behbudiydan yozib olgan xotiralaridan [Saidov, 2000; 149-150] foydalanadi. Samarqandlik jurnalist Nusrat Rahmat maqolalarini (2000, 2002) tahlilga tortadi. N.Karimov "Mufti" kim, uning istilohiy ma'nosi qanday" savollariga "Islom ensiklopediyasi"dan foydalanib javob beradi. Nusrat Rahmatning "Behbudiy muftilik libosida" maqolasida muftilar liboslarining qozilarnikidan farq qilishigacha so'z boradi. Behbudiyning muftiylik faoliyati jadidchilik g'oyalarining kengroq yoyilishiga yordam bergan.

Behbudiy hayotida buxorolik do'sti Hoji Baqo hamrohligidagi haj safarining o'rni katta bo'lgan. "Ko'pincha bu safarlar faqat diniy e'tiqod belgisi sifatida e'tirof etib kelingan. Ammo bunday safarlar vatandoshlarimizning musulmon farzandi sifatidagi burchlarini bajarishga imkon beribgina qolmay, ular dunyoqarashining kengayishiga ham keng imkon yaratgan" [Karimov, 2016; 8]. Behbudiy dunyoqarashining kengayishi, xalqning qoloq ahvoli qanday kechayotganini anglash, yangiliklar bilan tanishish, tom ma'noda jadid bo'lib qaytish imkonini bergan bu safar sakkiz oy davom etadit. U mazkur safar xotiralarini 1914-yili "Qasdi safar" [Behbudiy, 1914] maqolasida qisqacha yoritib beradi, shogirdi Hoji Muin "Mahmudxo'ja Behbudiy" [Muin, 1923] maqolasining "Haj safari va fikrning ochilishi" qismida ma'lumotlar keltiradi.

N.Karimov Behbudiyning maqolanavislik faoliyati 1905-yildan keyin boshlangan, deb ko'rsatadi. Ammo bu fikrini asoslash uchun adibning biror maqolasini keltirmaydi: "Afsuski, Behbudiyning maqolanavislik faoliyati 1905-yildan keyin boshlangan va u mazkur safari haqida biron maqola yozib qoldirmagan" [Karimov, 2011]. Behbudiy qalamiga mansub ilk maqola sifatida hozircha 1903-yili "Turkiston viloyatining gazetisi"da nashr etilgan "Samarqanddan kelgan maktub" maqolasi fanga ma'lum [Ahmad, 2024; 423]. Adabiyotshunos Zaynobiddin Abdirashidov esa Behbudiyning publitsistik faoliyati 1902-yili "Turkiston viloyatining gazetisi"dan boshlangan degan qarashni ilgari surmoqda [Abdirashidov & Egamqulova, 2019; 9].

N.Karimov Behbudiyning 1913-yildan asosiy e‘tiborini matbuot masalalariga qaratganini ta’kidlar ekan [Karimov, 2016; 8], Behbudiyning o‘z maqolalari bilan qatnashgan 18 ta davriy nashrlardagi hamma maqolalari topib o‘rganilmaganini ham adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridan biri, deb qaraydi. Behbudiy iste’dodining yana bir qirrasini publitsistikada namoyon qildi. N.Karimov Hoji Muin ma’lumotlariga tayanib, Behbudiy maqolalari soni 200 dan ziyod deb belgilaydi. Sirojiddin Ahmadning “Mahmudxo‘ja Behbudiy” kitobida esa 261 ta xabar va maqola sanab o‘tilgan. Bu maqolalar endi shakllanib kelayotgan o‘zbek publitsistikasi rivojida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Behbudiy publitsistikasi bilan yaqindan tanishish muallifning adabiy, ma’rifiy, siyosiy va milliy til masalalariga munosabatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Bu 18 gazeta va majmualarda, – deb yozadi Hoji Muin, – Behbudiyning ikki yuzga yaqin maqolasi bosilgandurkim, ular bir yerga to‘plang‘onda 5-6 yuz betlik bir kitob bo‘lur. Behbudiyning mazkur gazeta va majmualarda bosilg‘on maqolalarining ko‘bisi muhim mavzularda yozilg‘on bo‘lub, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dastur ul-amal bo‘laturg‘on foydalik so‘zlardur” [Muin, 2010; 168]. Behbudiy XX asrning boshlarida o‘zining maqolalarida ilgari surgan fikrlar bugungi kungacha o‘zining dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Ammo bu maqolalar Hoji Muin ta’kidlaganidek, bir kitob holiga hali ham keltirilmagan.

Publitsistika butun jadid adabiyotida juda muhim ahamiyatga ega sohalardan biri bo‘lganidek, Behbudiy faoliyatida ham alohida ahamiyat kasb etgan. U milliy matbuot masalasiga jiddiy e‘tibor qaratgani holda o‘zi ham “Samarqand” gazetasini (1913-yil aprel) va “dunyo musulmonlari orasida yaxshigina e‘tibor qozongan” “Oyina” jurnalini (1913-yil avgust) yo‘lga qo‘yib, ular orqali xalqni turli yangiliklardan xabardor qilib borishni maqsad qiladi.

“Samarqand” gazetasi Behbudiyning ilk noshirlik ishlaridan biri bo‘lishiga qaramay, ancha muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi. Gazeta sahifalarida jadid publitsistlari, shoir va adiblari Hoji Muin, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Kamiy, Saidrizo Alizoda, Siddiqiy Ajziy, Nusratulla Qudratulla o‘g‘li (Milliy), Rojiiy va boshqalarning asarlari e‘lon qilingan” [Yoqubov, 2012; 20-21]. Bundan tashqari, Behbudiy “Samarqand” gazetasida aholini gazeta o‘qishga targ‘ib qilishga qaratilgan qator maqolalarni ham e‘lon qilib borgan, Yevropa va AQSh gazetalari va ularning obunachilari, gazeta va jurnallarning rivojlangan davlatlar aholisi o‘rtasida tutgan ahamiyatini doimiy yoritib borishga harakat qilganini munaqqid alohida qayd etadi.

N.Karimov “Oyina” jurnalining faoliyatiga yuqori baho beradi: “Oyina” Turkistondan tashqari, Tatariston, Kavkaz, Afg‘oniston, Eron, Turkiya va Misrga qadar tarqalib, o‘zbek matbuoti tarixida chuqur iz qoldirdi” [Karimov, 2011; 49]. Bu jurnal Behbudiy va Turkiston jadidlari ijodida asosiy minbar bo‘lib xizmat qilganligi, Turkiston xalqining milliy uyg‘onishida muhim rol o‘ynaganini “Oyina” sahifalarida e‘lon qilingan she’r, xabar va maqolalar ham ko‘rsatib turadi.

N.Karimov “Oyina” jurnalida chop etilgan maqolalarni tahlilga tortar ekan, “yoshlarni diniy va dunyoviy bilimlarni egallashga, ikki emas, to‘rt tilni o‘zlashtirishga da’vat etuvchi maqolalar bilan chiqdi. Turli safar taassurotlari asosida

turkum maqolalar yozib, Sharq va, ayniqsa, G'arb mamlakatlarida kechayotgan ilmiy-madaniy yuksalish shu mamlakatlarda ilm-fanga bo'lgan katta e'tiborning natijasi ekanini ishonarli dalillar bilan asoslab berdi" [Karimov, 2011; 26], deb yozadi. Olim "Oyina" jurnalida e'lon qilingan maqolalarning hammasini emas, Behbudiy qalamiga mansub maqolalargagina to'xtalgan.

N.Karimov "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasi tahlilida Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy qarashlarini ochib beradi. Uning "o'rta til" masalasiga katta e'tibor qaratgani, bu masalada Ismoilbek Gasprinskiy bilan hamfikir ekanligini ta'kidlaydi. Shunga qaramay, fors, arab va rus tillarining ahamiyatiga ham katta e'tibor qaratgan Behbudiy "Oyina" jurnalini to'rt tilda yuritishni maqsad qilgan. Ammo faqat ilk soni to'rt tilda bosilgan, keyingilari o'zbek va fors tillarida nashr qilingan. "Oyina" jurnalining tili "80 foiz turkiy, 20 foiz forsiyda edi [Baldauf, 2001; 38]. Bu she'riy parchalarda yana ham ko'proq forsiy 30 foizni, turkiy 70 foizni [Abdirashidov & Egamqulova, 2019; 69] tashkil qiladi. Behbudiyning fors tiliga bo'lgan e'tiborini ko'plab o'quvchilari, yaqin maslakdoshlari ham uncha ma'qullamagan. Behbudiy safarda bo'lgan vaqtida jurnal ishlarini Hoji Muin olib boradi. Hoji Muin faoliyatining dastlabki yillarida forsiy maqolalar yozgan bo'lsa-da, 1914-yildan sof turkiyga o'tadi va birorta ham forsha maqola yozmaydi. Behbudiy yo'q bo'lganda, Hoji Muin "Oyina"ni turkiy jurnalga aylantirib qo'yadi [Baldauf, 2001; 44]. Behbudiy safardan qaytganidan keyin jurnalni yana avvalgi holiga qaytarib ishlay boshlaydi.

N.Karimov Behbudiyning "Safar xotiralari" [Behbudiy, 1914] turkum maqolalarini tahlil qilishda ko'proq biografik tomonlarni yoritganini ko'ramiz.

"Turkiston", "Sherdor madrasasi", "Turkiston tarixi kerak", "Ehtiyoji millat", "Bizni hollar va ishlar", "Jaholat dardlaridan", "Bizni kemirguvchi illatlar", "Ikki emas, to'rt til kerak", "Yoshlarga murojaat", "Muhtaram yoshlarga murojaat" kabi maqolalarida Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari tahlil qilar ekan, "Behbudiy nafaqat ma'rifatparvar pedagog va adib, balki jurnalist sifatida ham Turkiston xalqining basirat ko'zlarini ochishga intildi, o'zining va boshqa xalqlarning tarixini bilmay, XX asr uchun, ayniqsa, zarur bo'lgan iqtisodiy va huquqiy bilimlarni, ilg'or xalqlarning tillarini egallamay turib farovon yashashni, erk va hurriyatga erishishi mumkin emasligini tushuntirmoqchi bo'ldi. Agar uning shu yillari yozgan maqolalariga chuqur nazar tashlasak ana shu fikr-g'oya bu maqolalar osha "qizil ip" bo'lib o'tib turganini ko'ramiz" [Karimov, 2011; 51], – degan muhim fikrlarni beradi.

N.Karimov Behbudiyning ma'rifatparvarlik faoliyatini yoritishda uning ta'lim tizimi sohasida olib borgan ishlariga e'tiborini qaratadi. Behbudiy yangi usuldagi maktablar ochilishida katta jonbozlik ko'rsatgan va bu maktablar uchun "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Kitobat ul-atvol" ("Bolalar maktublari"), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi"), "Madxali jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), "Muxtasar jug'rofiyayi rusiy" ("Rusiyaning qisqacha geografiyasi") nomlaridagi darsliklarni yozgan edi. Ayni paytda ularni bepul tarqatardi [Karimov, 2011; 23].

N.Karimov Behbudiy darsliklarini tahlil qilar ekan, "u qisqa muddatda yoshlarni xatli-savodli qilish va ilm-fan olamiga olib kirish mumkinligini isbotlab



berdi. Bu maktablar ayrim johil va qoloq kimsalarning qattiq qarshiligiga uchragan va uning o'zini esa "kofir" deb atashgacha borgan bo'lsalar-da, Behbudiy novator-pedagog sifatida g'alaba qozongan edi" [Behbudiy, 1909; Karimov, 2008; 40], – deb yozadi. Behbudiy Ismoilbek Gasprinskiy asos solgan yangi usul maktablariga doimiy homiylik qiladi.

Behbudiyning maktab haqidagi qarashlari uning 1907-yili Rossiya III Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga ko'rib chiqish uchun yuborgan "Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasida ham o'z aksini topgan edi: "Taklifnomadagi eng muhim ikki mavzuning biri maktablarning xususiylashtirilishi (18-modda), ikkinchisi esa Rusiya Davlat Dumasining Turkistonning ichki ishlariga aralashmasligi lozimligi bilan bog'liq moddalardir" [Behbudiy, 2003; 148].

"Loyiha"ga "Umumiy maktablar" degan fasl ham kiritilgan bo'lib, olim undan quyidagi ko'chirmani keltiradi:

17. Rusiyaga umumiy o'qituv masalasi va moddasi Turkistonni musoviyan (tenglik), mushtakil (o'z ichiga olgan) bo'lsin.

18. Turkiston maktab va madrasalari hukumat nazoratidan ozod bo'lsin.

19. Umumiy oliy va o'rta maktabig'a musulmonlardan komissiya tayinlansin. Rus harfi musulmon maktablariga joriy bo'lmasin.

20. Har xil korxona, hisobxona va askarxonalarg'aki musulmon bordur, musulmon ruhoniysi tayinlansun.

"Loyiha"ning bu moddalari Behbudiyning 1907-yildayoq o'z oldiga ma'rifatparvarlikdan islohotchilik harakati sari dadil qadam tashlaganidan darak beradi" [Karimov, 2011; 25], – degan fikrni ilgari suradi. Bu moddalar bilan tanishgan kishi Behbudiyning xalq ta'limini qanchalar himoya qilgani, til masalasi va diniy qarashlarda ham sobitligiga guvoh bo'ladi.

Ismoilbek Gasprinskiy Turkiston ziyolilariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Behbudiy o'zining ma'rifatparvarlik g'oyalarida Gasprinskiy tajribasidan ilhom olgan, uning "Tarjimon" gazetasini muntazam o'qib turgan va o'z faoliyatini shu ruhda davom ettirgan. Gasprinskiy faoliyatining o'zbek adabiyotiga ta'siri masalasi turli davrlarda turlicha ko'rinishlarda bo'lgan. Adabiyotshunos olim Sherali Turdiyev o'zbek adabiyotining Ismoilbek Gasprinskiyga munosabatini to'rt guruhga bo'lib tahlil qilishni tavsiya qiladi. Bu borada B.Qosimov [Qosimov va boshq., 2004], S.Ahmedov, B.Karimov, Z.Abdurashidov, S.Sodiq [Sodiq, 2019] kabi olimlarimizning ishlarini alohida e'tirof etish lozim.

N.Karimov "Behbudiya kutubxonasi" faoliyatini Hoji Muin, Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa'diy va Mahmudxo'ja Behbudiy maqolalarida keltirilgan ma'lumotlarga asosida uning ochilishi hamda faoliyatiga aloqador batafsil ma'lumotlar beradi. Kutubxona faoliyatida Behbudiy ko'rsatgan sa'y-harakatlar, ham moddiy, ham ma'naviy yordamlari evaziga kutubxona fondi boyib, o'quvchilari soni ikki yuztadan oshganligini ta'kidlaydi. "Behbudiya kutubxonasi" Turkiston madaniy hayotida katta hodisa bo'lgan. O'sha vaqtlarda kitoblar soni kamligini hisobga olganda, "Tarixi Eron", "Tarix va madaniyat", "Usmonli rus safari", "Yaman sayohatnomasi", "Tarixi asotir", "Muxtasar tarixi madaniyat", "Hindiston sayohatnomasi", "Ilmi hayvonot",

“Latayifi Xo‘ja Nasriddin”, “Shohnomayi mumtozi oliy”, “Nizomiy kulliyoti”, “Bedil kulliyoti”, “Masnaviyi sharif”, “Haqiqatnoma” kabi kitoblar hamda “Siroj-ul axbor” (Afg‘oniston), “Qadinlar dunyosi” (Qozon), “Chehranoma” (Misr), “Habl-ul-matin” (Kalkutta), “Tarjimon” (Bog‘chasaroy), “Mulla Nasriddin” (Boku), “Yulduz” (Qozon), “Sho‘ro” (Orenburg) singari gazeta va jurnallarga ega kutubxona o‘quvchilarning ilm olishi va dunyoqarashining rivojlanishi uchun yaxshi imkoniyat yaratgan. “Behbudiya kutubxonasi” faoliyati Behbudiyning millat oldidagi katta ishlaridan deyish mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek adabiyotiga birinchilardan bo‘lib drama janrini olib kirgan adib hisoblanadi. “Padarkush” asari haqida N.Karimov o‘z qarashlarini “O‘zining tarix oldidagi missiyasini chuqur his qilgan adib 1911-yilda birinchi o‘zbek dramasi – “Padarkush”ni yozib, Turkistonda yangi san‘at turiga tamal toshini qo‘ydi” [Karimov, 2011; 37-38] degan fikrlari bilan beradi.

N.Karimov Behbudiyning adabiy tanqidchilikka oid qarashlarini uning “Teatr nadur”, “Tanqid saralamoqdur” kabi maqolalari orqali ko‘rsatadi. Bu maqolalar endi shakllanib kelayotgan o‘zbek adabiy tanqidchiligi rivojida muhim qimmatga ega. “Teatr nadur” maqolasi Behbudiyning bu san‘at va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi qarashlarini o‘zida jamlagan. “Tanqid saralamoqdur” maqolasi muallifning adabiy tanqid va adabiyotga bo‘lgan munosabatini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, N.Karimovning “Mahmudxo‘ja Behbudiy” risolasini o‘zbek adabiyotshunosligidagi muhim ilmiy hujjat, deb baholash mumkin. Bu asar orqali Behbudiy shaxsiyati faqat yozuvchi yoki pedagog sifatida emas, millat taqdiri uchun jonini fido qilgan islohotchi, ma‘rifatparvar sifatida namoyon bo‘ldi.

N.Karimovning ushbu tadqiqoti nafaqat Behbudiyning xalqqa qaytardi, balki butun jadidchilik harakatini qayta baholashga ilmiy asos bo‘ldi. Shu jihatdan, bu risola – o‘zbek milliy uyg‘onish tarixi va ma‘naviy ozodlik tafakkurining yirik ilmiy yodgorligi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdirashidov, Z., & Egamqulova, N. (2019). *Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali*. Toshkent: Muharrir.
2. Ahmad, S. (2024). *Mahmudxo‘ja Behbudiy*. Toshkent: Info Capital Books.
3. Baldauf, I. (2001). *XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar* (N.Karimov (Mas. muhar.)). Toshkent: Ma‘naviyat.
4. Behbudiy, M. (1909). Turkistonda maktab lisoni. “*Tarjimon*” gazetasi, 14, 21.
5. Behbudiy, M. (1914a). Safar xotiralari. “*Oyina*” jurnali, 31, 32, 35, 37–52.
6. Behbudiy, M. (1914b). Qasdi safar. “*Oyina*” jurnali, 31.
7. Behbudiy, M. (2003). Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi. *Jahon adabiyoti*, 8, 146–156.
8. Behbudiy, M. (2018). *Tanlangan asarlar* (B.Karimov (Muh.), 2 jildli). Toshkent: Akademnashr.
9. Behbudiy, M. (2021). *Tanlangan asarlar* (B.Karimov (Muh.), 2 jildli). Toshkent: Akademnashr.
10. Karimov, N. (2008). *XX asr adabiyoti manzaralari*. Toshkent: O‘zbekiston.
11. Karimov, N. (2010). Mahmudxo‘ja Behbudiy. *Til va adabiyot ta‘limi*, 4, 36–52.

12. Karimov, N. (2011). *Mahmudxo'ja Behbudiy*. Toshkent: O'zbekiston.
13. Karimov, N. (2016). *Jadid teatri*. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
14. Muin, H. (1923). Mahmudxo'ja Behbudiy. "*Uchqun*" *jurnali*, 1.
15. Muin, H. (2005). *Tanlangan asarlar* (B.Do'stqorayev (Tuzuv.)). Toshkent: Ma'naviyat.
16. Muin, H. (2010). *Tanlangan asarlar* (B.Do'stqorayev (Tuzuv.)). Toshkent: Ma'naviyat.
17. Qosimov, B., Yusupov, Sh., Dolimov, U. (2004). *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Ma'naviyat.
18. Saidov, H. (2000). *Ma'rifat libosidagi ozodlik*. Toshkent: Sharq.
19. Sodiq, S. (2019). *Yangi o'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'qituvchi.
20. Yoqubov, I. (2012). *Milliy uyg'onish davri o'zbek nasri*. Toshkent: Fan va texnologiya.

## REFERENCES

1. Abdirashidov, Z., & Egamqulova, N. (2019). *Mahmudkhoja Behbudi and his journal 'Oyina'*. Tashkent: Editor.
2. Ahmad, S. (2024). *Mahmudkhoja Behbudi*. Tashkent: Info Capital Books.
3. Baldauf, I. (2001). *Trends in 20th century Uzbek literature* (N.Karimov (Ed.)). Tashkent: Spirituality.
4. Behbudi, M. (1909). School language in Turkistan. *Newspaper of 'Translator'*, 14, 21.
5. Behbudi, M. (1914a). Travel memoirs. *Journal of 'Oyina'*, 31, 32, 35, 37–52.
6. Behbudi, M. (1914b). Journey purpose. *Journal of 'Oyina'*, 31.
7. Behbudi, M. (2003). The project of the Turkistan cultural autonomy. *World Literature*, 8, 146–156.
8. Behbudi, M. (2018). *Selected works* (B.Karimov (Ed.), 2 vols.). Tashkent: Akademnashr.
9. Behbudi, M. (2021). *Selected works* (B.Karimov (Ed.), 2 vols.). Tashkent: Akademnashr.
10. Karimov, N. (2008). *Scenes of 20th century literature*. Tashkent: Uzbekistan.
11. Karimov, N. (2010). Mahmudkhoja Behbudi. *Language and Literature Education*, 4, 36–52.
12. Karimov, N. (2011). *Mahmudkhoja Behbudi*. Tashkent: Uzbekistan.
13. Karimov, N. (2016). *Jadid theater*. Tashkent: Tashkent Islamic University.
14. Muin, H. (1923). Mahmudkhoja Behbudi. *Journal of 'Spark'*, 1.
15. Muin, H. (2005). *Selected works* (B.Dostqorayev (Ed.)). Tashkent: Spirituality.
16. Muin, H. (2010). *Selected works* (B.Dostqorayev (Ed.)). Tashkent: Spirituality.
17. Qosimov, B., Yusupov, Sh., Dolimov, U. (2004). *Uzbek literature of the national revival period*. Tashkent: Spirituality.
18. Saidov, H. (2000). *Freedom in the garb of enlightenment*. Tashkent: East.
19. Sodiq, S. (2019). *History of modern Uzbek literature*. Tashkent: Teacher.
20. Yoqubov, I. (2012). *Uzbek prose of the national awakening period*. Tashkent: Science and Technology.